

MINORAI KALON – NOYOB ME'MORCHILIK DURDONASI

Qahramon Mahmudov*Turan International University Tarix fani o'qituvchisi*teachermakhmudov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonning neg chiroyli shaharlaridan biri bo'lgan Buxoro shahrining ko'rki hisoblangan Minorai Kalon haqidadir. Uning qurilish uslubi, mahobati hanuzgacha sayyohlarni o'ziga jalb ertib kelmoqda. Bundan tashqari Minorai Kalon nomining kelib chiqishi haqida xulosalar berib borilgan. Me'morlar faoliyati shular jumlasidandir.

Kalit so'zlar: Minorai Kalon, Qoraxoniylar, Arslonxon, Nasr, O'lim Minorasi, Poyi Kalon, Mir Arab, Toqi Zargaron, Abdulazizxon, Ulug'bek, Ochil, Bobomurodov, 1920 yil, M.Frunze, YUNESCO, Olim Abdiyev, Samarqand, Chingizxon.

Аннотация: Данная статья посвящена Минарету Калян, который является одной из главных достопримечательностей одного из красивейших городов Узбекистана – города Бухары. Его архитектурный стиль и величие до сих пор привлекают туристов. Кроме того, в статье рассматривается происхождение названия «Минарет Калян». Также затронута деятельность архитекторов, причастных к его созданию.

Ключевые слова: Минарет Калян, Караханиды, Арслонхан, Наср, Башня смерти, Пойи Калян, Мир Араб, Токи Заргарон, Абдулазизхан, Улугбек, Очил, Бобомуродов, 1920 год, М.Фрунзе, ЮНЕСКО, Олим Абдиев, Самарканд, Чингисхан.

Abstract: This article is about the Kalon Minaret, a landmark of Bukhara, one of the most beautiful cities in Uzbekistan. Its architectural style and grandeur continue to captivate tourists to this day. Additionally, the article explores conclusions regarding the origin of the name "Kalon Minaret." The activities of the architects involved in its creation are also discussed.

Keywords: Kalon Minaret, Karakhanids, Arslan Khan, Nasr, Tower of Death, Poi Kalon, Mir Arab, Toqi Zargaron, Abdulaziz Khan, Ulugh Beg, Ochil, Bobomurodov, 1920, M. Frunze, UNESCO, Olim Abdiyev, Samarkand, Genghis Khan.

KIRISH.

Har bir davrning o'ziga xos madaniyati, me'morchilik an'analari va uslublari insoniyat tarixining o'lmas yodgorliklari sifatida avlodlar xotirasida saqlanadi. O'tmishdan qolgan inshootlar nafaqat zamonasining texnologik va estetik imkoniyatlarini, balki milliy o'zlikni, badiiy tafakkur darajasini ham aks ettiradi. Shunday bebaho yodgorliklardan biri – **Minorai Kalon**.

Buxoro shahrining ramzi sifatida tan olingan bu noyob inshoot O'rta Osiyoning boy me'morchilik merosi namunasi hisoblanadi. XII asrda Karaxoniylar sulolasining buyuk hukmdori Arslonxon tomonidan qurilgan Minorai Kalon o'zining betakror go'zalligi,

mukammal me'moriy yechimlari va zamonaviy qarashlar bilan uyg'unlashgan funksionalligi bilan e'tiborni tortadi. Bu minoraning qurilishi o'z davrining texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, yuqori mehnat mahsuli va g'oyaviy mahoratni namoyon etadi.

FIKR VA MULOHAZALAR.

Xalq orasida Minorai Kalon nomi bilan mashhur bo'lgan mazkur tarixiy inshoot O'zbek memorchilik durdonalaridan biri sanaladi. Buxoroning belgisi hisoblangan Minorai Kalonning barpo etilish vaqti va Rabot Malik karvonsaroyining qurilish davri Qoraxoniylar davriga to'g'ri keladi. Tarixdan ma'lumki, X asrning ikkinchi yarmida Somoniylarga qarshi turk g'ulomlaridan iborat harbiy boshliqlar ishtirokida fitna va qo'zg'olonlar boshlanib ketgan. Natijada 996-yilda turklar Buxoroda qo'zg'olon ko'targanlar va bu yerni egallaganlar. 999- yilda Nasr tomonidan shaharni egallab olinishi Movarounnahrda Qoraxoniylar hukmronligini o'rnatgan. Ular 1141-yilgacha davlat boshida turganlar³³.

Shu davr mobaynida mazkur sulola vakillari tomonidan bir qator bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan, ulardan bizga hozirga qadar tarixiy imoratlar ichida balandligi bo'yicha O'rta Osiyoda ikkinchi o'rinda turuvchi Minorai Kalon saqlanib qolgan. Buxoroning eng baland minorasi qariib uch asr, ya'ni XI – XIV davomida dunyoning eng baland inshooti hisoblangan³⁴.

Ushbu memorchilik inshootining nomlanishiga e'tibor bilan qarasak, forsiy nom bilan atalganligini sezish mushkul emas. Fors tilida bilamizki, "Kalon" so'zi katta degan ma'noni bildiradi. "Minora" esa arab tilidan olingan bo'lib "mayoq" deganidir. Minoralar gorizontol, ya'ni eni o'lchamiga nisbatan vertikal (tik) o'lchami ortiq bo'lgan baland inshoot³⁵ ekanligi hech bir kishi uchun sir emas. Minoralar ko'pincha ustalarning loyihalari asosida aylana shaklda, ko'p qirrali yoki to'rtburchak shaklida barpo qilinadi hamda bino balandlashgach yuqoriga tomon ingichkalashib, torayib boradi. Biz sizga ma'lumot bermoqchi bo'lganimiz Minorai Kalonda ushbu jihatlarni yaqqol ko'rish mumkin³⁶.

Buxoroning asrlar davomida ko'rkiga ko'rk baxsh etgan va o'ziga hos shuhrat olib kelgan bu minora xalq tilida ko'plab nomlar bilan atab kelingan.

Yuqoridagi nomdan tashqari Minorai Kalon "O'lim minorasi" nomi bilan anchagina mashhur³⁷, chunki bir qancha hukumdorlar davrida bu minorada siyosiy va og'ir jinoyat qilgan mahbuslarning ko'pchiligiga g'ayritabiiy o'lim jazosi qo'llanilgan, ya'ni shu minoradan juda ko'plab jinoyatchilar tashlab yuborilgan. Bu kabi jazo amaliyoti amalga oshiriluvchi bu minora shu nomda o'rta asrlarda shuhrat qozongan. Bilamizki, avvallari o'rta asrlar davrida o'lim jazosi ko'pincha odamlar gavjum bo'ladigan hududlarda keng xalq ommasi ko'z oldida ijro etilgan. Bunday joy vazifasini, asosan, bozorlar va masjidlar oldidagi keng maydonlar o'tagan. Mazkur minora- Minorai kalon ostida joylashgan Poyi kalon ansamblida bozor maydoni sifatida Toqi zargaron, masjid sifatida Kalon masjidi

³³ Vaxitov M. M., Mirzayev Sh.R. Me'morchilik tarixi. – T.: Tafakkur, 2010. – B. 167.

³⁴ Tom Bissell. Chasing the Sea: Lost Among the Ghosts of Empire in Central Asia. L.: Vintage, 2003. – B. 204.

³⁵ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Minora>

³⁶ <https://xs.uz/uz/post/2027-jilda-minorai-kalonning-900-jilligi-nishonlanadimi>

hamda qo‘shimcha ravishda Mir Arab madrasasi ham mavjud edi. Bu esa xalq ommasi to‘planadigan yuqorida sanab o‘tilgan barcha maskanni bir o‘zida jamlagan, bu esa hukumron doira manfaatlariga to‘liq ravishda mos kelgan.

Minorai kalon, demak, ham forsiy hamda arabiy nomlanishga ega bo‘lgan XII asrda Buxoroda bunyod etilgan tarixiy memoriy yodgorlik hisoblanadi. Etimologik jihatdan olib qaraganda binoning ikki qardosh bo‘lmagan tildagi so‘zlar bilan nomlanishi tarixan mazkur hududda o‘zbeklar bilan birgalikda arablar va forslarning ham yonma- yon yashaganligining yana bir isboti va hosilasidir. Buxoroda bu davrda Qoraxoniylar sulolasi hukumron edi, davlat ish yuritish tili arab tili hisoblangan. Oddiy aholi esa o‘zbek va fors-tojik tilida muomala qilishgan. Shu sababdan, o‘ylashimizcha, bu inshoot aynan shunday tarzda “Minorai kalon” deb atalgan³⁸. Bundan tashqari mazkur inshoot minorani qurdirgan shaxs Arslonxo‘ja nomi bilan ham ataladi.

Tarixiy yodgorlikning qurilish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Minorai kalon (Katta minora) – Buxorodagi eng baland me‘moriy yodgorlik hisoblanib, xalq orasida ikkinchi nomi, ya‘ni Arslonxon minorasi nomi bilan anchagina mashhur. Mazkur memoriy obida muxandis va me‘mor Baqo loyihasi asosida milodiy 1127- yilda Qoraxoniylar hukumdor Arslonxon tomonidan qurdirilgan³⁹. Buni bir qator xorijiy manbalar ham tasdiqlaydi⁴⁰. Bu minora qurilgan davrdan to 1300-yilga qadar dunyoning eng baland minorasi hisoblangan⁴¹. Bu davrda mag‘rib va mashriqda unga bo‘ylasha oladigan memoriy obidalar mavjud emas edi, ammo bu jarayon ikki asrdan sal uzoqroqqa cho‘zildi xolos.

Minorai kalonning joylashgan o‘rnida avval ham minora mavjud bo‘lgan, usha eski minora qulab tushgach, uning o‘rnida hozirgi ya‘ni Minorai kalon mustahkam qilib qaytadan qurilgan. Katta ehtimol bilan mazkur minora avval ham mezana (muazzin namozga azon chaqirishi uchun mo‘ljallagan maxsus baland bino) vazifasini o‘tagan, chunki mahalliy aholi bu davrda ham islom diniga e‘tiqod qilgan, shu bilan birgalikda eski minora o‘rnida qaytadan yangi minora qurish har ikki tomonlama: siyosiy va diniy jihatdan zarur va foydali edi. Shu yo‘l bilan siyosiy jihatdan hukumdor Arslonxon o‘z mavqeyini mustahkamlab tarixda qolardi va masjidga yig‘ilganlar minora qurdirgan shaxs nomini hamisha ulug‘lab, haqqiga duo qilar edi hamda xalq orasida kuchli ta‘sirga ega bo‘lgan diniy ulamolarni o‘z tomoniga o‘g‘dirib ham olar edi.. Shuningdek, sharq xalqlarida azaldan “Podsho Allohning yerdagi soyasi” degan naql mavjud. Bundan tashqari Buxoroda azaldan islom ruhoniylarining ta‘siri anchagina yuqori bo‘lgan, ular hukumdor siyosatini xalqqa bevosita yetkazuvchilardan biri edi. Ayniqsa, endigina taxtni egallagan hukumdorlar nomini xutbaga qo‘shib o‘qish, yohud xutbadan olib tashlash bu o‘sha davr siyosati uchun juda katta ahamiyat kasb etardi⁴².

³⁸ <https://meros.uz/object/minorai-kalon>

³⁹ <https://meros.uz/object/minorai-kalon>

⁴⁰ Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest ... – P. 320.

⁴¹ Tom Bissell. Chasing the Sea: Lost Among the Ghosts of Empire in Central Asia. – L.: Vintage, 2003. – B. 204.

⁴² <https://meros.uz/object/minorai-kalon>

Keyinchalik Minorai kalon atrofida bir qator tarixiy imoratlar qad rostlaydi va Minora ostidagi o'ziga hos ansambl shakllanadi hamda joylashgan o'rniga monand tarzda - Poyi Kalon deb ataladi. Poyi Kalon me'moriy ansamblda Mir Arab madrasasi, Toqi Zargaron (Zargarlar toqi – savdo rastasi) joylashgan. Uning orqarog'da Toqi Zargaron, undan keyinroqda Ulug'bek va Abdulazizxon madrasalari o'rin egallagan⁴³.

Minorai Kalonning poydevori tosh va maxsus qir qorishmasidan mustahkam tarzda terilgan. Poydevorning mustahkam bo'lishi juda katta rol o'ynagan, chunki, qariib ellik metrli pishiq g'ishtdan ishlangan imoratni yer ostiga Italiyadagi Pizza minorasi kabi cho'kib ketmasligi yohud yer silkinishlari natijasida yerga qulab tushmasligi uchun, albatta, poydevor metindek qattiq bo'lishi zarur edi. Bino asosi yer sathidan 9 metr chuqurlikda, minoraning umumiy balandligi esa 50 metrga teng, ba'zi manbalarda 46 yoki 47 metr degan ma'lumotlar ham uchrab turadi⁴⁴, bu tafovutlar mezana ustidagi gumbazni hisobga qo'shish yoki undan tashqari binoning sof g'ishtin qismini hisoblash bilan bog'liqlidir, o'ylashimizcha. Minora tarxi tekis kursisi yassi shaklda, qirrador, tanasi konussimon, tepasi esa gumbazli davra qafasa-ko'shk bilan bog'langan, devorlarini qalinligi 0,8-0,9 metr, poydevor chuqurligi 10 metrgacha ketgan, chunki 50 metr balandlikdagi minorani ushlab turish uchun va mustahkam poydevor lozim bo'lgan. Poypesh, ya'ni binoning asos qismida inshootning doira diametri 9 metrni tashkil etadi. Minora ichidagi 105 ta pog'onadan iborat bo'lgan aylanma zina – rotunda orqali uning tepasiga chiqiladi⁴⁵.

Minoraning tepasida ichidagi zinapoyani yoritish uchun 16ta ravoqli darchalar o'rnatilgan, ular orqali atrofni bemalol kuzatish mumkin. Uning ustida esa bosqichma-bosqich chiqarilgan karniz ishlangan⁴⁶. Minora yuqoriga ingichkalashib boradi va muqarnas bilan tugaydi, uning diametri ham g'isht terishga mos ravishda qisqarib boradi, yuqorisining diamerti olti metrni tashkil etadi. Masjidi kalon tomondan minoraga o'tiladigan ko'prikcha mavjud. Bu ko'prikchaning vazifasi muazzin masjid hovlisini aylanib chiqmay, to'g'ridan to'g'ri meznaga chiqarish imkonini berishdir. Uning o'zagi ham, bezagi ham chorsi g'isht (27x27x4x5 sm) ganchxok loyida terilgan⁴⁷.

Bezak gishti o'rniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil handasiy shakldagi bejirim bezakli halqalari g'ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqalarning har biri turli xil handasiy shaklda bezatilgan (keyinchalik to'kilib ketgan). Minorai kalon shu turdagi qadimiy inshootlar orasida alohida o'rin tutadi. Shakllarning o'zaro monandligi va mutanosibligi handasiy uyg'unlik, ajoyib ko'rk va mahobatlilik Minorai kalonga chinakam go'zallik bag'ishlaydi. Shuning uchun xonliklar davrida Buxorodagi mazkur minoraga monan, undanda mahobatli va go'zal minoralar qurilishiga buyuruq berilgan, chunki O'rta Osiyo xonliklarining

⁴³ Vaxitov M. M., Mirzayev Sh.R. Me'morchilik tarixi. – T.: Tafakkur, 2010. – B. 169.

⁴⁴ Vaxitov M. M., Mirzayev Sh.R. Me'morchilik tarixi. – T.: Tafakkur, 2010. – B. 168.

⁴⁵ <https://meros.uz/object/minorai-kalon>

⁴⁶ Vaxitov M. M., Mirzayev Sh.R. Me'morchilik tarixi. – T.: Tafakkur, 2010. – B.168.

⁴⁷ <https://meros.uz/object/minorai-kalon>

hukumdorlari doimiy nizoda va bir-birlari bilan kelishmas, kim o‘zarga xalq ommasi oldida barcha jihatdan poyga o‘ynashardi. Yuqoridagi so‘zimiz dalili sifatidagi Xivadagi Islomxo‘ja minorani olishimiz mumkin.

Keyinchalik bu yerda Poyi Kalon me‘moriy ansambli shakllangan⁴⁸. Minorai Kalonning bugungi kunimizgacha yaxshi saqlanib qolinishining sabablari haqida buxorolik mohir usta, ikkinchi darajali O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti sohibi Olim Abdiyev shunday deydi: “Buning siri minoraning poydevorida. U juda mustahkam bo‘lib, yer sathidan o‘n metrcha chuqurlikda joylashgan. Manbalarda qayd etilishicha, usta Baqo minora poydevorini tiklab bo‘lgach, bir yil mobaynida uni sinovdan o‘tkazadi. Mustahkamligiga ishonch hosil qilganidan so‘nggina, inshootning qolgan qismini bunyod etishga kirishadi⁴⁹”. Bu haqida yana shunday izohlar bor: usta Baqo minora poydevorini qurib bitkazgach sirli tarzda g‘oyib bo‘lgan, (ba‘zi ma‘lumotlarda qochib ketgan ham deyishadi) oradan bir yil o‘tgach qaytib kelib yana ishni davom ettirgan. Bu asosan poydevorni mustahkam bo‘lishi hamda har bir faslda sodir bo‘ladigan tabiat injiqliklariga minora poydevorini bardoshli qilish masqad qilingan. Chunki qor, yomg‘ir kabi tabiat hodisalari ko‘plab imoratlarga zarar yetkazishi barchaga ma‘lum edi. Shuni hamda bino ustiga yana ko‘p mikqdorda pishgan g‘isht terilishini inobatga olgan memor har tomonlama chuqur o‘ylab ish ko‘rgan. Minoraning yana bir o‘ziga hos siri uning zilzilalarga bardoshlilikida, chunki to‘qqiz asrdan uzoqroq vaqt davomida ham minora o‘z mahobatini saqlab turibdi. Unga ishlatilgan qurilish qotishmalari ham mazkur o‘rinda muhim ahamiyat kasb etadi. Hattoki 1920-yilda M. Frunze minorani samolyotlar yordamida o‘qqa tutganda ham minoraning uchta qismidan teshiklar hosil bo‘lgan bo‘lsada, yerga qulamagan. Hozirgi tamirlash ishlari olib borilgan holatda ham o‘q teshib o‘tgan qismini yaqqol bilib olish mumkin. Bunda siz e‘tiboringizni g‘ishtlarning hajmiga emas, balki rangiga qaratsangiz shuning o‘zi kifoya. O‘tgan asrdagi g‘ishtlar rangi to‘qroq, eski XII asrga oid g‘ishtlar esa rangpar holatdadir⁵⁰.

Minora bilan bir qatorda o‘ziga hos tarixiy qiyofani, tarixiy muhitni kishi ko‘z o‘ngida hosil qiluvchi yana bir qator imoratlar borki, ular haqida so‘z yuritmaslikning, ta‘kidlab o‘tmaslikning iloji yo‘q, negaki bu kabi imoratlar minoradan keyingi davrlarda qurilgan bo‘lishiga qaramay o‘ziga xos ansamblni tashkil etadi. Ansambl nomi ham antiqa, minoraning ostida qurilgan bir qator imoratlar Poyi Kalon deb ataladi, uni tahlil qiladigan bo‘lsak, poyi-quyi, osti degan ma‘noni bersa, Kalon so‘zi minora nomidan olingan.

Poyi kalon me‘moriy ansamblida Kalon masjidi, Mir Arab madrasasi kabi bir qator o‘ziga xos bo‘lgan islom dunyosida mashhur va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Xususan, Minorai kalon ko‘p yillar davomida Kalon masjidi uchun mezana vazifasi bajargan. Bu masjid ko‘p yillar davomida Mir Arab madrasalari toliblari va ustozlari uchun hamda mahallliy aholi uchun xizmat ko‘rsatgan. Masjidi Kalon joyida dastlab 1121-yilda Juma masjidi bunyod etilgan. Vaqt o‘tishi bilan mazkur inshoot vayronaga aylangan. 1514-yilga

⁴⁸ Vaxitov M. M., Mirzayev Sh.R. Me‘morchilik tarixi. – T.: Tafakkur, 2010. – B. 167.

⁴⁹ Minorai Kalon // www.GolosUzbekistana.net.

⁵⁰ <https://xs.uz/uz/post/2027-jilda-minorai-kalonning-900-jilligi-nishonlanadimi>

kelib, bu inshoot Masjid Kalon sifatida qayta qurilgan⁵¹. Masjid Kalon nomidan ham sezish mumkinki, ushbu masjid Poyi Kalonning ajralmas bir bo'lagidir. Mazkur masjid minoraga monand tarzda unga yondosh holatda barpo etilgan bo'lib, unda minglab namozxonlar o'z diniy amallarini bajarganlar. Bu inshoot qadimiyligi va yirikligi tomonidan Samarqanddagi Bibixonim masjididan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Ko'p yillar davomida musulmonlar uchun xizmat ko'rsatib kelgan bu inshoot hozirgi kunda ham Buxoroning ko'rki hisoblanadi, har yili millionlab sayyohlar Samarqand va Buxoroga sayohat qilish barobarida Poyi Kalon ansamblini ham, shuningdek, Kalon masjidini ham ziyorat qiladilar.

Masjidi Kalonning hajmi va binokorlik bezakchiligi u darajada bo'lmasa-da, rejaviy masshtabligi, o'zining qurilish yechimi jihatidan Samarqanddagi va Hirotdagi masjidlardan aslo qolishmaydi. Masjid Kalonning bosh fasadi sharq tomonga qaragan. Buning o'ziga xos jihati mavjud. Bilamizki, islom dinida musulmonlar Makkai Mukarramada joylashgan muqaddas Ka'baga yuzlanib besh vaqt namozni ado etadilar, bizning diyorimiz joylashgan o'rni bu muqaddas zamindan sharqda joylashganligi uchun ham namozxonlar kun botish, ya'ni g'arbga tomon yuzlanishadi. Shu asnoda masjidning xutba o'qiladigan yeri ark ichida bo'lib, barcha masjid hovlisidagilar peshtoqga ro'baro' tarzda namoz amallarini bajarganlar. Bundan tashqari masjid sharqqa qaratilganligining yana bir jihati quyosh nurlari erta tongdan masjidni yoritir va peshtoq ham o'zgacha jilolanar edi⁵². Yirik va mozaika bilan pardozlangan masjid peshtoqi bir oz balandda joylashgan. Masjid hovlisi ham ko'plab insonlarni o'z bag'riga sig'dirish uchun juda keng qilib qurilgan. Masjid hovlisiga bir necha pog'onadan iborat zina bilan kiriladi. Hovlining ikki tarafida ikkita moviy gumbaz joylashgan. To'g'ri to'rtburchak shaklga ega bo'lgan bu hovlining atrofi 228 ta gumbazdan iborat ayvonlar bilan o'ralgan. Bu gumbazlar, birinchidan, havoni yaxshi aylanishi uchun hizmat qilsa, ikkinchidan, imom ovozini balandroq eshitisini ta'minlaydi, sababi o'sha davrda horirdagi kabi ovoz kuchaytirib beruvchi texnik vositalar tugul, elektr energiyasining o'zi ham mavjud bo'lmagan. Gumbazlar vositasida imom ovozini kuchaytirib berish masjidga yig'ilganlar uchun birmuncha qulaylik yaratgan. Binoning ichi hashamatli va sirlidir. U o'zida o'rta asr sharq memorchiligining ko'plab arxitektura topilmalarini saqlab qolgan. Gumbaz, peshtoqning o'zida ham bu usullar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ammo RSFSRning 1920-yilda Frunze⁵³ boshliq qo'shinlarning Buxoroga bosqini natijasida Minorai Kalon va Poyi Kalon ansamblidagi tarixiy imoratlar o'qqa tutildi. Minorai Kalon tanasi havo kuchlaridan o'qqa tutilgach, anchagina zarar ko'rdi, ushbu minora qarovsiz holatga kelib qoldi va unga hech kim e'tibor qaratmadi, imorat yarim xaroba holida to'rt yil saqlandi.

1920- yildan so'ng Buxoro va Xiva xonliklari tugatilgach, ular o'rnida Rossiyaga bo'ysinuvchi BXSР va XXSR tashkil topdi, siyosiy vaziyat yumshagach 1924-yil minoraning tanasi va muqarnaslari ta'mir etilgan. Shundan so'ng o'tgan asrning 20-50-yillarda Minorai Kalonga hech kim e'tibor bermadi, yer silkinishlari va tabiiy ofatlarga

⁵¹ Vaxitov M. M., Mirzayev Sh.R. Me'morchilik tarixi. – T.: Tafakkur, 2010. – B. 179.

⁵² Vaxitov M. M., Mirzayev Sh.R. Me'morchilik tarixi.– T.: Tafakkur, 2010. – B. 179.

⁵³ Зоҳидов Б. Бухоро. – Т.: Ўзбекистонп, 1981. – Б. 71.

qaramay tarixiy inshoot yaxshi saqlanib qoldi⁵⁴. Keyinchalik 1960-yillarda minoraning yer ostidagi asosi (kursisi) usta Ochil Bobomurodov tomonidan ochib ta'mirlangan⁵⁵. Ushbu voqeadan so'ng yana minora vataniniz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgunga qadar o'z holiga tashlab qo'yildi. Milliy istiqloлга erishilgach mustaqil O'zbekiston o'zining keng imkoniyati va qadim o'tmishini hamda tarixiy maskanlarini jahon ommasi e'tiboriga havola eta boshladi.

YUNESCO shafeligida 1997-yil boqiy shaharlar Xiva va Buxoroning 2500 yillik yubileyi keng miqyosda nishonlandi, shu munosabat bilan Masjidi Kalon, shu bilan birgalikda ansambldagi boshqa tarixiy obidalar ham obdon restavratsiya qilindi.

Bu kabi masjidning qoshida keyinchalik (1620-yil) tolibi ilimlarga saboq berish maqsadida Mir Arab madrasasi bunyod etilgan, quyida mazkur ta'lim dargohi haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tamiz. Mir Arab madrasasi jahonga tanilgan va musulmon dunyosining yirik diniy oliy maktablaridan biri sanaladi. Mazkur madrasa inson tafakkurining mahsuli bo'lgan ajoyib arxitektura yodgorligidir. Mir Arab madrasasining peshtoqi Masjidi Kalonning portali bilan yagona o'qda joylashgan. Ammo madrasa bir oz balandroqda bunyod etilgan. Manbalarda qayd etilishicha, ushbu joy bir oz past bo'lgan, shuning uchun bino asosi tuproq bilan to'ldirilib balandga ko'tarilgan va Kalon masjidi bilan tenglashtirish maqsad qilingan. Rivoyat qilishlaricha, o'sha davrdagi Buxoro podshosi uch ming nafar erkak va ayollarni qul sifatida pullagan. Bundan tushgan mablag'ni u Abdulla Yamaniy degan mashhur kishiga madrasa barpo etish uchun bergan⁵⁶.

Rejalashtirilgan madrasa qurilishi uchun an'anaviy hajm-rejaviy yechim qabul qilingan. Fasadning o'rtasida birinchi bo'lib ko'zga tashlanadigan yirik peshtoq joylashtirilgan. Ichki hovli burchaklari kesilgan to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uning atrofida ikki qavatli ayvonli hujralar joylashgan. Bosh fasad bo'ylab peshtoqning o'ng va chap qanotida ikkita gumbazli zal joylashgan. Bosh fasad burchaklarida vazmin kichik minora – "guldasta" tiklangan. Ba'zi bir yechimlar bo'yicha masjid loyihasi mumtoz yechimlardan farq qiladi. Kiraverishda o'ng qo'lda darsxona, chap qo'lda go'rxona joylashgan. Daxmalar tantanavor tarzda qurilgan, zal parusli konstruksiyalar bilan yopilgan. Boshqa madrasalar qurilishidan yana farqi shundaki, bu madrasadagi yashash xonalarining rejasi bir muncha takomillashgan. Xususan, madrasada xonalar hujralar o'rta asrlarga xos bo'lgan uchta xonadan iborat, ya'ni yotoqxona, darsxona va qaznoqdan iborat bo'lgan. Hujralar gumbazli dahliz va xonalardan tashkil topgan. Yashash xonasida tokchalar yasalgan. Mazkur tokchalar kundalik maishiy buyumlarni va tolibi ilmlarning kitoblarini saqlash uchun xizmat qilgan, shu bilan birgalikda xonalari sal qorong'i, torroq bo'lgan, chunki u davrda hozirdagi kabi yoritish uskunalari tugul elektr energiyasi ham bo'lmagan. Ushbu madrasada yoshligida o'qigan, buxorolik taniqli tojik adibi Sadriddin Ayniy o'zining "Buxoro" kitobida xonalarni izohlab, odam ham, havo ham, yorug'lik ham birgina eshikdan kiradi,

⁵⁴ <https://whc.unesco.org/en/list/602>

⁵⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/Minorai_Kalon

⁵⁶ Vaxitov M. M., Mirzayev Sh.R. Me'morchilik tarixi. = T.: Tafakkur, 2010. – B.184.

o‘chog‘ning tutuni ham o‘sha yerdan chiqadi, dahlizdagi o‘choqda ovqat pishiriladi, o‘tin qo‘yiladi, yuz-qo‘l yuviladi, degan misralarni keltiradi⁵⁷.

Madrasaning arxitekturaviy bezagi Samarqandda bunyod etilgan so‘nggi inshootlarning jilosiga mos keladi. Fasadda o‘ymakorlik mozaikaning terilishi ornamentlarga mayin, rango rang bezak berilishi, yozuvlarning ko‘pligi o‘z tabiatiga ko‘ra serjilo tasvir yaratadi. Hovlidagi bo‘ylama va ko‘ndalang devorlab bo‘ylab joylashgan portallar ham go‘zallik namunasi sifatida xizmat qiladi. Me‘morchilik va shaharsozlikda Mir Arab madrasasini Masjidi Kalon va Minorai Kalondan alohida holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu uchala inshoot birgalikda markaziy monumental kompleksni tashkil qiladi⁵⁸.

Minorai kalon bilan bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy voqealar va shaxslar talaygina. Xususan, 1220-yilda Buxoroga bostirib kelgan mo‘g‘ul istilochisi Chingizxon (1155 – 1227) mazkur minoraga ulkan qiziqish va hayrat bilan qaragan. Ma‘lumotlarda qayd etilishicha, Chingizxon minora ostiga otda kelib uning yuqorisiga nigoh tashlash uchun boshini yuqoriga ko‘taradi, minora shu qadar balan ediki, mo‘g‘ul istilochisi bu binoni butun bo‘y - bastini ko‘raman degan chog‘da bosh kiyimi nogahon yergab tushib ketadi. Shu vaziyatda kutilmagan voqea sodir bo‘ladi, ya‘ni butun boshli Buxoro shahridagi barcha binolarni buzdirishga buyurgan Chingizxon Minorai kalonni saqlab qolishga amr qiladi⁵⁹.

XULOSA

Bu kabi voqealar kishini hayratga solmasdan qolmaydi, negaki Buxorodagi barcha minoralarni Chingizxon buzdirishga buyurgani va ushbu shahar o‘rnini tekislatib bug‘doy ekishga amr qilgani haqida tarixchi Abdulahad Muhammadjonovning O‘zbekiston tarixi darsigida bayon qilingan, ammo ulug‘vor tarixiy inshootlar – Ismoil Somoniy maqbarasi va Minorai Kalon saqlab qolingani hamda bizning davrga qadar yetib kelgan. Bu tarixiy qadamjolar, tarixiy yodgorliklar bugungi kunda mamlakatimizda turizm rivojiga sezilarli darajada hissa qo‘shmoqda, ko‘plab sayyohlar, asosan, Buxoro va Samarqandga tarixiy obidalarini ko‘rish maqsadida tashrif buyuradilar.

REFERENCES:

- 1.Vaxitov M. M., Mirzayev Sh.R. Me‘morchilik tarixi. – T.: Tafakkur, 2010. – B. 167.
- 2.Tom Bissell. Chasing the Sea: Lost Among the Ghosts of Empire in Central Asia. L.: Vintage, 2003. – B. 204.
- 3.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Minora>
- 4.<https://xs.uz/uz/post/2027-jilda-minorai-kalonning-900-jilligi-nishonlanadimi>
- 5.Tom Bissell. Chasing the Sea: Lost Among the Ghosts of Empire in Central Asia. – L.: Vintage, 2003. – B. 205.
- 6.<https://meros.uz/object/minorai-kalon>

⁵⁷ Vaxitov M. M., Mirzayev Sh.R. Me‘morchilik tarixi. – T.: Tafakkur, 2010. – B.182.

⁵⁸ Vaxitov M. M., Mirzayev Sh.R. Me‘morchilik tarixi. – T.: Tafakkur, 2010. – B.184.

⁵⁹ Tom Bissell. Chasing the Sea: Lost Among the Ghosts of Empire in Central Asia. – L.: Vintage, 2003. – B. 206.

7.Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest ... – P. 320.

8.<https://meros.uz/object/minorai-kalon>

9.<https://meros.uz/object/minorai-kalon>

10.Minorai Kalon // www. Golos Uzbekistana.

11.Зоҳидов Б. Бухоро. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б. 71

12.<https://whc.unesco.org/en/list/602>